



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAHALLA VA OILANI QO'LLAB-QUVVATLASH VAZIRLIGI

### "MAHALLA VA OILA" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

**"JAMOATCHILIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISHDA MAHALLA INSTITUTINING ROLI: TAJRIBA VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI"**  
mavzusida

### XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

**O'tkazish sanasi: 2022-yil 25-mart  
O'tkazish joyi: Toshkent shahri**

**Anjumanning rasmiy tili: o'zbek, rus va ingliz tillari.**

**Huquqiy asos.** Jamoatchilik nazorati jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash uchun o'ta muhim amaliyot hisoblanadi. U fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari qonunchilik doirasida davlat hokimiyati va boshqaruva organlari hamda nodavlat tashkilotlar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bu esa davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'RQ-474-sonli Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni ijrosi ta'minlanishi va jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida "22-mart – Mahalla tizimi xodimlari kuni" deb belgilanganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining 2022-yil ish rejasining 117-bandida "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish, oila institutini mustahkamlash hamda xotin-qizlar va keksa avlod vakillarini qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faoliyklarini oshirish" bo'yicha "Mahallalarda milliy qadriyatlarni mustahkamlash haftaligi" (22-28-mart) doirasida "**Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda mahalla institutining roli: tajriba va rivojlanish istiqbollari**" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasini yuksak ilmiy-tashkiliy saviyada o'tkazish belgilangan.

**Xalqaro konferensiyani o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilib, amaliyotga izchil tatbiq etilayotgan "**2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi**

**O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida**”gi Farmonida ko‘zda tutilgan ustuvor vazifalar asosida mamlakatimizda mahalla tizimida jamoatchilik nazorati bo‘yicha amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar va ularning ijobiliy natijalarini xalqaro hamjamiyatga yetkazish, mazkur yo‘nalishdagi xalqaro tajriba hamda ekspertlar fikrini o‘rganish asosida mahalla institutini qo‘llab-quvvatlash, aholini ijtimoiy himoya qilish, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatida jamoatchilik nazoratini yanada mustahkamlash, “mahallabay” tizimini joriy qilish, sohada faoliyat olib borayotgan rahbar va mutaxassis kadrlar kasbiy kompetentligini oshirish, sohaga innovatsiyalar, ilm-fan yutuqlarini implementatsiya qilish hamda sohani yanada rivojlantirish istiqbollarini belgilab olishdan iborat.

Xalqaro konferensiya ishida AQSh, Rossiya, Koreya, Malayziya, Singapur, Turkiya kabi davlatlarning yetakchi ekspertlari, O‘zbekistonda akkreditatsiyadan o‘tgan diplomatik korpus hamda xalqaro tashkilotlar, vazirlik va idoralar vakillari, OTM va ilmiy muassasalar professor-o‘qituvchilari, fuqarolik jamiyati institutlari va OAV vakillarining ishtirok etishi mo‘ljallangan.

## KONFERENSIYA TASHKILOTCHILARI:

- 1. O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi.**
- 2. “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti.**

## AXBOROT XATI

2022-yil 25-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutida “22-mart – Mahalla tizimi xodimlari kuni” munosabati bilan “Mahallalarda milliy qadriyatlarni mustahkamlash haftaligi” (22-28-mart) doirasida **“Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda mahalla institutining roli: tajriba va rivojlanish istiqbollari”** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkaziladi.

### Konferensiya quyidagi sho‘balarda ish olib boradi:

- 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mahalla tizimida jamoatchilik nazoratiga oid ijtimoiy masalalar va ularni amalga oshirish mexanizmlari.
- O‘zbekistonda jamoatchilik nazoratining normativ-huquqiy bazasi takomillashuvi va rivojlanish istiqbollari.
- Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi mavqeyini yuksaltirishda xorijiy tajriba: nazariya va amaliyot.
- Mahalla va oila tizimi rahbar va mutaxassislarining kasbiy kompetentligini oshirish masalalari.

### Maqola matnini tayyorlash bo‘yicha talablar: Anjumanning rasmiy tili: o‘zbek, rus va ingliz tillari.

- Matn Microsoft Word muharriri, Times New Roman shrifti, 14 o‘lcham, 1,5 interval, yuqori va pastdan 2 sm, o‘ngdan 1,5 va chapdan 3 sm qoldirilib, rasmiylashtiriladi.

2. Sarlavhadan keyin muallif(lar)ning ismi, sharifi va familiyasi, ilmiy darajasi, ish joyi ko'rsatiladi, bir interval tashlagan holda annotatsiya va kalit so'zlar keltiriladi, so'ng 2 interval tashlab asosiy matn va oxirida adabiyotlar ro'yxati keltiriladi.

3. Maqola mazmuni konferensiya mavzusi va yo'nalishlariga mos bo'lib, dolzarbligi asoslanishi, tahlil, amaliy tavsiyalar berilishi, hajmi A4 formatda 4-7 sahifadan iborat bo'lishi kerak.

4. Fayl muallifning familiyasi bilan nomlangan bo'lishi shart.

5. Matnda keltirilgan fikrlar, statistik ma'lumotlar aks etgan g'oyalar, shuningdek, matn orsfografiyasi uchun mas'uliyat muallif zimmasida qoladi.

6. Maqolalar to'plam holida chop etiladi.

7. Maqolalar va ishtirokchi anketasi elektron shaklda ([norqulov.h69@mail.ru](mailto:norqulov.h69@mail.ru)) qabul qilinadi.

8. Ilmiy maqolani qabul qilishning oxirgi muddati: 2022-yil 10-mart.

9. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to'plamga kiritilmaydi.

#### Tashkiliy qo'mita manzili:

Toshkent shahar, Ismoiliy ko'chasi, 1G uy

"Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti

Telefon: +998 94 - 605-08-69.

 @Mahallavaoilainstituti

*Ilmiy-amaliy konferensiya  
tashkiliy qo'mitasini*

#### Ishtirokchi anketasi

<b>Muallifning F.I.Sh</b>	
<b>Shahar yoki tuman</b>	
<b>Ish jovi</b>	
<b>Ilmiy darajasi, ilmiy unvoni</b>	
<b>Maqola nomi</b>	
<b>Sho'ba nomi</b>	
<b>E-mail</b>	
<b>Telefon</b>	